# :Axborot xizmati:: RISHTON: INTILGANGA TOLE YOR

Bugun mamlakat bўylab yangilanish ruҳi kezib yuribdi. Bu odamlarning kayfiyatida, ish, amallarida, fikrlarida kўzga tashlanadi. Nafaқat bu ҳolatlarda, balki shaҳarlarimiz, tumanlarimiz қiёfasida ҳam yangilanish kўzga tashlanadi. Ayrim ҳududlarda olib borilaёtgan ulkan bunёdkorlik ishlarini kўrib kўzingizga ishonmaysiz. Ўzbekiston Respublikasi Prezidentining қarori bilan amalga oshirilaёtgan urbanizatsiya jaraёnlari, tumanlar markazlari turmush sharoitining shaҳarlardagi kabi bўlishi uchun ҳarakatlar allaқachon boshlanib ketgan.Bunday bunёdkorlik ishlari Farғona viloyatining Rishton tumnida ҳam amalga oshirilmoқda. Tuman markazidagi asosiy kўchaning ikki tomondan 25 metrga kengayishi va deҳқon bozori ҳamda uning ortidagi uylarning bosh reja asosida buzilishi esa kўplab honadon egalariga noқulaylik tuғdirishi tabiiy. Mana shu jaraёnda aҳoli vakillari uchun қanday sharoitlar yaratilmoқda, ularning aҳvoli қanday degan savollar paydo bўldi.Kun қizigan pallada Rishtonga etib borganimizda bu erda ҳaёt қaynab ёtgan ekan. Қuruvchilar tsement қorgan, ғisht urgan, tuproқ tortgan, mashinalar yuk tashigan, odamlar meҳnat қilgan.Rishton tumani ҳokimligiga kirib borib ҳokimning қurilish ishlari bўyicha ўrinbosari Sodiқjon Ҳaydarovni sўraymiz. U қurilish obektlarida ekan, 10-15 daқiқada etib keldi. Amalga oshirilaёtgan ishlar, uylari buzilishga tushgan aҳoliga қanday қilib ularning zararlari қoplab berilaёtgani ҳaқida savollar beramiz.Asosiy yўl chetidagi uylar aksariyati bir қavatli, maҳalliy hom ashёdan bўlgan, arhitektura talablariga javob bermaydigan uylar bўlib, ikki қavatli uyga aylantirib bўlmasdi. Oltiariқ chegarasidan Baғdod chegarasigacha yўl kengayishi kerak. Bunda honadonlar tumandagi 4 ta sektor raҳbarlariga biriktirib berildi va ҳar bir sektorga 17 tadan mutahassis ajratildi. Albatta uyi buzilaёtgan odamlar norozichilik kayfiyatida ҳam bўldi, biz tushuntirish ishlarini olib bordik. Tushuntirish ishlari yahshi olib borilmagan ҳududlarda aҳoli notўғri tushunchalarga kelib қolgan. 25 metr kengaygandagi қizil chiziққa tushgan honadonlarga ҳisob-kitob қilindi. Bunda kimningdir uyi butunicha, kimnikidir 5 metr ёki tўrtdan biri ё uchdan biri tўғri kelgan. SHuning uchun kompensatsiya puli miқdori ҳar hil chiққan. Meёriy ҳujjatlar asosida erkin baҳolovchi binoning konstruktsiyasi va materialiga etibor berib baҳolab bermoқda. Kompensatsiya puli avans tariқasida berilgan, bunda rўyhatdan tushib қolgan fuқarolar ҳam bўlgan, boshқatdan hatlov қilib, ularga ҳam pul berdik. Asosan norozilik bildirganlar bozor ichidagi honadonlar egalaridir. Bu honadonlar 30 yil ilgari snosga tushgan, 10 yil oldin ularga sanoat kolleji tomondan er berilgan, malum miқdorda kompensatsiya puli ҳam berilib, mablaғ etarli bўlmaganidan қolib ketgan. Ularning kўpida bugungi kunda egalik ҳuқuқi ўzgarib ketgan. YAna boshқatdan shu honadonlarga er va kompensatsiya puli berildi. Ҳozirgacha berilgan kompensatsiya ўrta ҳisobda 60-70 mlndanga tўғri keladi, uylar 10 mlndan 300 mlngacha baҳolangan bўlib, 4 mlrd sўm mablaғ ajratildi. Ayrimlarga hoҳishiga kўra kompensatsiya ҳisobidan er maydoni ҳam berildi, buning ҳisobi 3,5 mlrd sўm bўladi. Toshoғaliқ va Minor maҳallalarida muammolarga duch keldik. Bu erda kўpқavatli honadonlar қurilishi kerak edi. Aҳoli ўz uylarimizni saқlab қolamiz deyishdi, biz etirozni etiborga olib, raҳbariyat bilan maslaҳatlashib, ўzlariga ikki қavatli uy қurishga ruhsat berdik. Aҳoli, asosan, қurilish materiali, kompensatsiya bўyicha etiroz bildirmoқda. Ҳozirgi kunda ҳamma uyi buzilishga tushganlarga 5000 tadan ғisht beryapmiz. Қalaynov, Toshoғaliқ, Minor, Қozi Aҳror, Uchariқ, Oқer maҳallalariga 90% berib bўldik. Bozor ichidagi honadonlarga 80-90 % kompensatsiya pulini ҳam berib bўldik. 10 mln, 20 mln, 80-90 mln sўm olgan ҳam bor. Aҳoliga ёrdamga odam biriktirib қўyganmiz.Sodiқjon bilan suҳbatdan sўng aҳoli honadonlariga borib ularni suҳbatga tortamiz. -Darvozahonamiz va uning ёnidagi uylarimiz buzildi, - deydi Roshidoniy kўchasi, 258-uyda istiқomat қiluvchi Baҳromjon Topvoldiev. – endi ikki қavatli uy қuryapmiz, uning birinchi қavatida ҳunarmandchilik, avtoservis hususiy firmalari joylashadi. Ҳam Rishtonimiz chiroyli bўladi, ҳam ish ўrinlari yaratiladi.-Rishtonimizdan uluғ insonlar etishib chiққan. Burҳoniddin Roshidoniy kabi uluғ olimu fuzalolar yurti bu, – deb suҳbatga қўshildi uning rafiқasi Kanizahon opa Mirzahonova. – Kelajak uchun obod vatan қolsin, zamonaviy uy-joylar қurilsin, ish ўrinlari yaratilsin, ёshlar ilm-fanga intilib, yana roshidoniylar chiқsin. 5 farzandim bor, ular ҳam shu ёshlarning vakillari. Ҳunarmandlar shaҳri bўlgan Rishtonimizda endi uylarni daromad keltiradigan қilib қuryapmiz, bunga yўl ochib berildi. Ilgari faқat yashash honalari edi, endi esa bizning ўzimiz 5 ta ish ўrni yaratamiz.Uchariқlik Ibroҳimjon Hўjamov ҳam bunёdkorlik jaraёnlariga munosabat bildirdi:-Bugun қiёfasi ўzgaraёtgan Rishton, obod bўlaёtgan yurtimiz uchun қilinaёtgan ishlarning boshida muҳtaram Prezidentimiz turibdilar. Bu Rishton aҳolisini ўylab, bizning ҳam yahshi sharoitlarda yashashimizni ўylab қabul қilingan қarordir. Bizning uyimiz ҳam buzilishga tushgan. Ҳozirda ўz kuchimiz bilan yangi uyning poydevorini қurdik. Viloyat ҳokimligi tomonidan ҳar bir uyi buzilishga tushgan oilaga berilaёtgan ғishtdan 5000 ta bepul ғisht oldik, endi tsement ҳam berishar ekan. Uylarimiz eski edi, yangi bўlib қoldi. Қurilish maydonida yurganimizda tuman ҳokimi vazifasini bajaruvchi Subҳon aka Solievni uchratib қoldik. Aҳoli orasida bazi norozi kayfiyatlilari bor, sababi nima deb savol berdik. -Bepul ғisht, tsementni navbatma-navbat tarқatyapmiz. SHu orada ҳali ulgurib olib borilmagan honadonlar buni notўғri tushunishi mumkin. Keyin katta-kichik mashinalarda olib borilgani uchun ғishtlarning soni ҳar hil boryapti, lekin ҳammasining ҳisobi bor. Kompensatsiya puli berilishi masalasida ozgina norozilik bor. CHunki ҳozir baҳolangan narhni birdaniga tўlay olganimiz yўқ, bosқichma-bosқich beryapmiz. Lekin ҳamma pul beriladi, havotirga ўrin yўқ. Aҳoli orasida tushuntirish ishlarini olib boryapmiz. Deҳқon bozorining maydoni 1,5 gektar edi, endi u 8 gektarli erga kўchirilmoқda. Markazga қўshimcha binolar, supermarket, gipermarketlar қuriladi. 100 dan ortiқ yuridik shahslarning

dўkonlari bugungi arhitektura talablari asosida қuriladi. Ҳozir buzilgan joylardan necha ming tonnalab maishiy chiқindilar olib chiқib tashlanyapti. 400 ta hўjalikka 5000 tadan pishiқ ғisht, қiynalgan oilalarga 2 tonnadan tsement, bepul қum, shaғal beryapmiz.Rishtondagi қurilish maydonlarida bўlib, aҳoli bilan suҳbatlashib, rasmiy malumotlar bilan tanishgach, ijtimoiy tarmoқlarda urchigan bazi gap-sўzlarning asossiz ekanligiga ishondik. CHunki tuman raҳbarlari kўz oldimizda honadonlarga kirib, aҳoli bilan gaplashib, ularning talabini tinglab, etirozlarini etiborga olib ish tutganlariga guvoҳ bўldik. Jumladan, asosiy yўl ёқasida қurilishi mўljallangan 4 қavatli uylar ўrniga aҳolining fikri etiborga olinib, bu erda 2 қavatli uylar қurishga ruhsat berildi. Ammo bazi honadonlarning bunday uy қurib olishlari қiyin bўlishini ҳisobga olib, yuқorida aytilganidek, қurilish materiallaridan ёrdam berilmoқda. Қurilish bitguncha yashash joyi yўқlarga ijara ҳaқini tўlab berish sharti bilan bўsh honadonlarga kўchirilmoқda. Uyida boқuvchisi yўқ, keksa onahonlarga berilgan er uchastkasiga uylari қurib ҳam berilmoқda. SHuningdek, ҳar bir honadonga қurilish ishlari uchun ёrdamga odam biriktirilgan.Ҳozirda tumanda buzish ishlari 90 foiz bajarilgan, ayrim honadonlarda қurilishlar boshlab yuborilgan. Bozor ҳududida 9 ta kўpқavatli uy қurish rejalashtirilgan, 1 gektar er maydoni esa boғ maydoni uchun ajratiladi. Uylarning birinchi қavatlari savdo-maishiy hizmat dўkonlari bўladi.Juda ulkan bunёdkorlik jaraёnida ёzning jazirama issiғiga қaramay elkama-elka turib meҳnat қilaёtgan, farovon turmush sari intilaёtgan aҳolimizga қarab “Intilganga tole ёr” degan halқimizning ҳikmatli iborasi ёdimizga tushdi.

Gulbaҳor Saidғanieva

2019-07-22 17:06:18